



O'QITUVCHINING DARSGA TAYYORLANISHI

*University of Management and
Future technologies universitetining
Xorijiy til va adabiyoti talabasi
Nazarova Rayxona*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'qituvchining darsga tayyorlanish jarayoni, darsni samarali rejalashtirishning ahamiyati, o'qituvchining pedagogik mahorati va zamonaviy metodlardan foydalanish masalalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, darsga tayyorlanish bosqichlari, o'qituvchi faoliyatida metodik va psixologik yondashuvlarning o'rni hamda ta'lim jarayonida texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari haqida ma'lumot beriladi.*

Kalit so'zlar: *dars, o'qituvchi, tayyorgarlik, metodika, ta'lim jarayoni, interfaol metodlar, rejalashtirish.*

O'qituvchining darsga tayyorlanishi ta'lim jarayonining eng muhim qismlaridan biri hisoblanadi. Darsning sifati, o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirishi va umumiy natijalar ko'p jihatdan o'qituvchining oldindan qilgan tayyorgarligiga bog'liq. Darsni yaxshi rejalashtirgan o'qituvchi mavzuni sodda va tushunarli qilib yetkazadi, o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va ularni darsga faol jalb etadi. Shu sababli, darsga puxta tayyorlanish o'qituvchining kasbiy mahoratini ko'rsatib beradi. Darsga tayyorlanish, avvalo, mavzuni chuqur o'rganishdan boshlanadi. O'qituvchi mavzuga doir darslik va qo'shimcha adabiyotlar bilan tanishadi, ilmiy manbalardagi yangicha qarashlarni solishtiradi, asosiy tushuncha va g'oyalarni aniqlab oladi. Mavzuni o'quvchilarning yoshiga moslashtirish, murakkab joylarini sodda misollar bilan tushuntirish yo'llarini topish ham tayyorgarlikning muhim qismidir. O'qituvchi mavzuning qaysi tomonlari o'quvchilar uchun qiyin bo'lishini oldindan bilib, shu bo'limlarga ko'proq e'tibor qaratadi.



Darsning maqsadini aniqlash o'qituvchining eng muhim vazifalaridan biridir. Har bir darsda ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar belgilab olinadi. Ta'limiy maqsad orqali o'quvchilarga yangi bilim beriladi, tarbiyaviy maqsad orqali ularning dunyoqarashi, xulq-atvori shakllanadi, rivojlantiruvchi maqsad esa ularning mustaqil fikrlashi, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Maqsadning aniq belgilanishi darsning yo'nalishini belgilab beradi. Darsni samarali tashkil etish uchun mos metod va usullarni tanlash ham muhimdir. Bugungi kunda o'quvchilarning faolligini oshirish uchun interfaol metodlardan keng foydalanilmoqda. "Aqliy hujum", "Klaster", "Tushunchalar tahlili", "Guruhda ishlash" kabi metodlar o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi, ularni mustaqil ishlashga o'rgatadi. Khaydarov S.A.ning ijtimoiy fanlarni o'qitish jarayonidagi tadqiqotlari ham interfaol metodlar orqali dars samaradorligini oshirish imkoniyati yuqoriligini ta'kidlaydi. O'qituvchi mavzuning xarakteriga qarab qaysi metodlar ko'proq natija berishini oldindan belgilab oladi. Dars konspekti tayyorlash o'qituvchining kundalik ishlaridan biridir. Konspektda darsning ketma-ketligi, asosiy savollar, qo'llaniladigan metodlar, mustahkamlash mashqlari aniq yozilishi kerak. Yaxshi tuzilgan konspekt darsni tartibli, izchil va mazmunli o'tkazishga yordam beradi. Bundan tashqari, o'qituvchi darsga qo'llaniladigan ko'rgazmali vositalar, slaydlar, tarqatma materiallarni oldindan tayyorlab qo'yishi kerak. Zamonaviy texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etish o'quvchilarning mavzuni tezroq va yaxshiroq o'zlashtirishiga imkon yaratadi. Darsga tayyorlanishda o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish ham muhim. Har bir sinfda bilim darajasi, psixologik holati, qiziqishlari turlicha bo'lgan o'quvchilar bo'ladi. O'qituvchi kim tez o'zlashtirishi, kimga ko'proq tushuntirish kerakligini oldindan bilgan holda, darsni shunga mos rejalashtiradi. Bu esa ta'limning sifati oshishiga xizmat qiladi.

Darsga psixologik tayyorgarlik ham o'qituvchining kasbiy kompetensiyasining bir qismidir. O'qituvchi dars jarayonida o'zini qanday tutishi, o'quvchilarga qanday munosabatda bo'lishi, sinfga qanday ruhda kirishi



o'quvchilarning darsga bo'lgan munosabatiga bevosita ta'sir qiladi. O'qituvchi o'zida ishonch, xotirjamlik va mehribonlikni saqlagan holda dars o'tsa, sinfdagi muhit ham yaxshi bo'ladi. O'zbekistonda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar o'qituvchi mehnatini yengillashtirish, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan. Nomozov va Haydarov tomonidan ta'kidlanganidek, ta'lim tizimidagi yangilanishlar to'g'ri rejalashtirilgan dars va zamonaviy metodlardan foydalanishni talab etadi. O'qituvchilar muntazam ravishda malaka oshirish kurslarida qatnashib, pedagogik yondashuvlarini takomillashtirib borishmoqda.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchining darsga tayyorlanishi ta'lim sifatini belgilaydigan asosiy omildir. Darsga puxta tayyorgarlik ko'rgan o'qituvchi mavzuni izchil va tushunarli bayon qila oladi, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi va darsni samarali tashkil etadi. Bugungi kunda texnologiyalardan foydalanish, to'g'ri tanlangan metodlar, psixologik tayyorgarlik o'qituvchining kasbiy mahoratini belgilab beradi. Shuning uchun har bir darsga mas'uliyat bilan yondashish o'qituvchining eng asosiy vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xaydarov. S.A. (2025). Oilaviy tarbiyada va maktab tarbiyasida yuzaga keladigan risklar. 16-son. 9-11.
2. Хайдаров С. (2024). Spiritual influence on child education in families. Web of Teachers: Inderscience Research. 2 (11). 203-205.
3. Хайдаров С. (2025). Oilalarда фарзанд тарбиясига руҳий таъсир ўтказиш. Modern Education and Development. 3 (17). 23-27.
4. Khaydarov S.A. (2025). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. Modern Education and Development. 3 (17). 28-33.
5. Xaydarov S.A. (2025). Ijtimoiy-gumanitar fanlarda raqamli metodlardan foydalanish yo'llari. NEW RENAISSANCE international scientific journal. 2(1). 91-94.



6. Xaydarov S.A. (2025). Yoshlarda vatanparvarlik hissini tarbiyalashda Boburnoma asariga ishlangan miniatyuralarning ahamiyati. Til va adabiyot.uz. 2.11-12.
7. Khaydarov S.A. (2025). On analysis of family factors and social creativity issues in the study of the psychological portrait of educational institutions' leaders. Tuijin Jishu/Journal of Propulsion Technology ISSN: 1001-4055 Vol. 46 No. 2.
8. Хайдаров С. (2025). Pedagogik risklarni boshqarishning nazariy asoslari va globallashuv jarayonidagi ahamiyati. 3 (9). 261-265.